

KO'P HUJAYRALILARNING KELIB CHIQISHI TO'G'RISIDAGI
ASOSIY NAZARIYALARI

G'ulomova Mo'mina Shavkatbek qizi

Andijon Davlat Pedagogika Institutu

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi

Biologa yo'nalishi 1-bosqich

102-guruh talabasi

Annotatsiya. Barcha ko'p hujayralilar koloniya bo'lib yashovchi bir hujayralilardan kelib chiqqan. Bu bo'yicha juda ko'p olimlar ish olib borgan. *Gastreya*, *Fagotsitella*, hamda *Sellyurizatsiya* nazariyalariga asos solingam.

Kalit so'zlar. *Gastreya*, invaginatsiya, fagotsitella, immigratsiya, blastopor, gastrotsel, sellyurizatsiya.

Gastreya nazariyasiga ko'ra ko'p hujayralilarning qadimgi ajdodlari sharsimon koloniyali hayvonlar bo'lgan. Bu nazariyaga E. Gekkel asos solgan. Ko'p hujayralilarning embrional rivojlanishida gastrula stadiyasida ichki ikkinchi embrion varag'ini blastula devorining blastula bo'shlig'iga botib kirishi-*invaginatsiya* natijasida bo'lishi bu fikrni tasdiqlaydi. Uning fikricha ko'p hujayralilarning qadimgi ajdodlari sharsimon koloniyadan uning bir bo'lagini ikkinchi bo'lagiga botib kirishi natijasida hosil bo'lgan. Gastrula bo'shlig'I birlamchi ichak bo'shlig'iga aylangan, u og'iz teshigi bilan tashqariga ochilgan. Gekkel "*gestrey*" deb atagan bu gipotik organism suvda kipriklar yordamida suzib yurgan. Jinsiy ko'paygan.

Fagotsitella nazariyasi. I. I. Mechnikov o'zining bu nazariyasida ko'p hujayralilarning gastrula stadiyasi invaginatsiya yo'li bilan emas, balki ayrim hujayralarning blastula bo'shlig'iga ko'chishi natijasida hosil bo'lgan deydi. Keyinchalik ichki hujayralar tig'iz joylashuvi bilan birlamchi ichak bo'shlig'I *gastrotsel*, keyinroq birlamchi og'iz *blastopor* hosil bo'ladi. Hujayralarning ichki bo'shliqqa o'tishi ularni oziqni hazm qilishga ixtisoslashuvi bilan bog'liq. Shuning uchun I.I. Mechnikov bunday hujayralarni *fagotsitoblastlar*, o'z nazariyasini esa "*fagotsitella*" deb atagan.

A.A. Zaxvatkinning fikricha "*Gastreya*" va "*Fagotsitella*" nazariyalari ko'p hujayralilarning kelib chiqishini aniq aks ettirmaydi. Chunki blastula va gastrula voyaga yetgan organizmlar ajdodlari tuzilishini ifodalamaydi, balki turlarni tabiatda tarqalishiga imkon beruvchi erkin hayot kechiradigan lichinkalari hisoblanadi. Lekin bu fikr haqiqatdan ancha yiroq deyish mumkin. Chunki hazm sistemasi rivojlanmagan va sodda o'troq hayvonlardan murakkab tuzulishiga ega bo'lgan,

Sellyurizatsiya nazariyasi. Yugoslaviyalik olim lovan Hoji ko'p hujayralilar bevosita ko'p yadroli infuzoriyalardan kelib chiqqan degan fikrini bildirdi. I.Hoji

infuzoriyalar tanasidagi malum vazifalarini bajarishga moslashgan ayrim qismlari.yani organoidlari kop hujayrali hayvolarning xuddi shunday vazifalarini bajaradigan organlariga aylangan degan fikirni ilgari suradi .shunga kora u kop hujayralilarni teri qoplami ektoplazmadan .ichaklari esa endoplazmadan.muskullari mionemalardan.ayiruv organlari qisqaruvchi vakuollardan va jinsiy organlari infuzoiyalarning mkronukleuslaridan rivojlangan.deydi.Hatto olim kop hujayralarning jinsiy urchishi infuzoriyalarning konyugasiyasi . tuxum hujayralarning uruglanishi esa mikrunukleusning migratsiyalanuvchi va statsionar yadrochalarning ozaro qoshilishga mos keladi deb hisoplaydi. SHunday qilib.I.Hojining selliyurizatsiya cellula hujayran nazariyasi binoan infuzoriyaning tanasi bir butun ko'p hujayrali organizmga aylanib qo'yaqolgan. Mazkur nazariya haqiqatdan uzoq bo'lishiga qaramay, zoologlar orasida uni qo'llab quvvatlovchilar ham uchrab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1. Umurtqasizlar zoologiyasi O. Mavlonov, Sh. Xurramov, X. Eshova**
- 2. "Umurtqasizlar zoologiyasi" Edvard E. Ruppert, Richard S. Foks, Robert, D. Bams**